



## Tohir Malikning "Oxirat" hikoyasidagi diniy mavzular talqini

*Urganch davlat universiteti*

*Filologiya fakulteti talabasi*

*Ismoilova Kamola*

**Annotatsiya:** Maqolada oxirat, iymon mavzulari bir-biriga konflikt obrazlar asosida atroflicha yoritilgan.Jumladan inson umrining yakunida iymon kalimasini aytalish, Alloh roziligidagi erishish uchun bu hayotda qilgan amallari sarhisob qilinishi aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Oxirat, iymon, hadis, tavba, hidoyat.

Donolar demishlarkim:"Sen o'zingni ko'rmoq istaysanmi? U holda ko'zgudagi tashqi qiyofangga emas, ichingdagi ko'zguga boq". Biz esa kunda necha bor ko'zguga qaraymiz. Qalbimizga-chi? Asarlarini o'qib bevosita insonning tashqi qiyofasiga emas, balki ko'ngil ko'zgusiga boqishga undovchi, o'z xatti- harakatlarini o'ziga ko'zgu misol namoyon qila oluvchi o'tkir qalam sohibi Tohir Malikdir.Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning adabiyotni insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarni esa inson ruhining muhandislari deya ta'rif berishi yo bo'lmasa ulkan iste'dod sohibi Shukur Xolmirzayevning ham adabiyotning insonshunoslik fani haqidagi fikrlari bejizga emas. Demak adabiyot markazida inson turar ekan, yozuvchi Tohir Malik ham bevosita inson xilqatining nozik qirralarini o'z falsafiy qarashlari ila yangidan kashf eta olgan desak, mubolag'a bo'lmaydi.O'zining "Mehmon tuyg'ular", "Odamiylik mulki", "Shaytanat", "Ilyonlashish umidi", "Oxirat" nomli asarlari orqali ezgulik va yovuzlikning tub chegaralarini aniq belgilagan, jinoyatning eng tuban va eng chirkin yo'llarini ochib bera olgan, chinakam odamiylikni yuksak marralarda kuylay olgan, bir so'z bilan aytganda, diniy va dunyoviy mavzularda ham birdek qalam tebrata olgan yozuvchilardan biridir.Jumladan, yozuvchining "Oxirat" nomli hikoyasini tahlil qiladigan bo'lsak, go'zal amallar sohibi Muhammadali va noplak xislatlar egasi Ne'matulloh kabi bir-biriga qarama-qarshi obrazlar hayoti tilga olinadi va bu hayotda qilgan barcha yaxshi-yomon amallar oxiratni obod yoki barbos qiluvchi asosiy sabablardan biri ekanligi ta'kidlanadi. O'zgaga jahannam "gullari" nasib bo'lishini istayotgan odam buning o'rniga jannah rohatini tilagani afzal emasmikan? O'zganing jahannam o'tida kuymog'i uning duosi bilan bo'lmanidek,o'zining jannah bog'larida sayr qilishi yaxshi niyat va amallari bilan ekanligini bilishi ham bir baxtdir, deya ta'kidlab o'tadi yozuvchi o'zining "Odamiylik



mulki"asarida.Quyidagi fikrlarni keltirishimdan maqsad, "Oxirat" nomli hikoyasining mazmuni ham ayni mana shu jumlalarga hamohangdir. Jumladan, asar qahramoni , go'zal xulq sohibi Muhammadi ham o'zining yaxshi niyat va amallari mukofoti boqiy va abadiy hayot jannat ekanligini bilardi va har bir mo'min banda oldidagi oliy maqsadlardan biri bo'lmish Alloh rozligiga erishish uchun harakat qilardi, hattoki, o'zining maktabdosh do'sti, o'z ustozining o'gli bo'lmish Ne'matulloh unga tuhmat tashlab, hayotining yarmini qamoqxonada o'tkazishiga sababchi bo'lganida ham, do'sti Ne'matullohga jahannam "gullari"ni tilamadi, aksincha, o'z birodari uchun Allohdan faqat va faqat hidoyat so'radi, uning ham gunohlarini mag'firat qilishi uchun duo qildi.Quyidagi jumlalardan ham Muhammadalining qanday inson ekanligini bilib olishimiz mumkin."Ko'ziga uyqu ilinishi qiyin bo'lgan edi.Bir necha kundan beri bu ahvol takrorlanayotgani uchun yuragining yarador qush singari potirlab urub qo'yayotganiga ham e'tibor bermadi.U o'limdan cho'chimas edi.Ajal yetganda iymon kalimasini aytishga ulgurmay, jon taslim qilishdan qo'rqardi.Namoz farz bo'lish yoshiga yetmasdan ilgariroq Allohga qullik vazifasini bajara boshlagan, peshonasi necha yoshida ilk marta sajdaga tekkanini aniq bilmagan, foniy dunyoda qariyb ming oy umr kechirgan Muhammadalining bu xavotiridan xabar topgan odamning ajablanishi tabiiy edi". Muhammadali yoshlik paytidan ko'plab kitoblar o'qirdi, sovetlar ta'qibi avjga chiqqan paytda ham ayni qishloq uyquga ketgan vaqtida ustozining uyiga borardi, oxiratda vaqtning hisobi so'ralishini bilardi, Allohning huzurida uyalib qolmaslikni o'ylab, har tun bir oyat yoki hadisni o'rganmasdan uxlamasdi.Endi unga qarama-qarshi obraz Ne'matulloh-chi? Uning o'qishga hushi yo'q, uyquni sevardi, buning sababini ustozi afsus bilan ko'p aytardi:"Luqmaga xarom aralashgan paytda bo'lib qolgan bu bola". Halol va xarom luqma farzandning kelajakda qanday xulq egasi bo'lishida asosiy sabablardan biri ekanligi ta'kidlab o'tilmoqda, chunki onasi Muhammadalini betahorat emizmasdi, u emib bo'lgunicha"Yosin" surasini o'qib o'tirardi. Hikoyaning asosiy qismiga keladigan bo'lsak, Urush tugagandan keyin Muhammadali va Ne'matulloh baravariga harbiyga chaqirildi, bu yerda ham Muhammadali o'z e'tiqodiga sodiq qoldi, harbiylarni cho'chqa go'shti bilan boqishadi degan gapni eshitgach umuman go'sht yemadi, Ne'matulloh esa tomog'idan qanday luqma o'tayotganiga parvo ham qilmadi.Muhammadalining haloligi tufayli oshxonada non kesib tarqatuvchi qilishdi, undan



qo'shimcha non so'rab kelganlarga bermas edi, chunki boshqalarning haqqi hisobiga ularni to'ydirishni istamasdi.Ne'matulloh ham undan qo'shimcha non talab qilardi, Muhammadali bo'lса una sabr, halollik haqida nasihat aytardi, lekin do'sti Ne'matullohning bu gaplarga toqati bo'lmay, eshitmasdan chiqib ketardi.Bu hol ko'p takrorlanaver gach Ne'matulloh o'z do'stiga tuhmat tashladi, Muhammadali non sotib, pulini o'ziga olyapti deya shikoyat qildi. Albatta yozuvlikning ham tarafdorlari topiladi deganlaridek, uning fikrini tasdiqlagan bir guruh tuhmatchilar topildi.Bu tuhmat sabab Muhammadali umrining yarmini temir panjarada o'tkazdi, bu yerdan chiqqanidan keyin do'sti Ne'matullohning kasal bo'lib to'shakka mixlanib qolganini eshitdi va uni ko'rgani bordi.Muhammadali ostona xatlab kirar ekan, bemordan ko'z uzmay, salom berdi, qoqsuyak bo'lib qolgan qo'lni olib so'rashdi, Muhamadali bu qo'lni kaftlari orasiga olib siladi, duo o'qib, bemorga dam soldi, ahir bu qo'llar qachonlardir tubmat xatiga imzo chekib bermaganmidi? "Ahvoling shu ekan-ku, kerilib yurib, necha odamlarning ko'nglini og'ritib topgan mukofoting shu bo'ldimi? Shu ahvolga tushishingni bilganingda tuhmatdan tiyilgan bo'larmiding? Tiyilmasding...Qani endi oxirat azobidan o'zingni himoya qil-chi?". Muhammadalining shu fikrlarni aytishini kutgandirsiz, yo'q, u bunaqa demasdi, aksincha butun qalbi ila Allohga iltijo qilib, do'stini afv etishni so'rardi, u mo'minga xos fazilatiga xiyonat qilmasdi, qamoqxonadan chiqqan zahoti Ne'matullohni kechirgandi.Endi ikkita qahramonning hayot yakuni qanday bo'lishiga qiziqyapmisiz, Jum'a kuni Muhammadali masjidga shoshilib kirdi, halol va xaromdan va'z o'qidi, gapirganida ovozi titrab-titrab ketdi, bir oz sukut saqladi, keyin davom etdi:

- Ha, azizlar, halol yashagan odam jannatga hisobsiz kiradi...So'ng jimib qoldi.Ko'zlar qavmga tikilgan, lablarida yoqimli tabassum bor edi-ma'viza qilayotganida jannat xabarini olib quvonganday edi go'yo...Alloh bilguvchi.Qavm asr namozidan keyin janozaga hozir bo'ldi. Ne'matulloh ham bu onda jon bergen, ko'zlar qo'rquvdan chaqchaygan, iyagi tushgan holatda yotardi. Qo'shnilar Muhammadalining janozasida bo'lganlari uchun bu kech undan xabar ololmadilar...

Xulosa shuki, bu hayotdagи barcha yaxshi ammallar jannat uchun tashlangan qadamlar, aksincha esa, noplak amallar do'zax sari tashlangan odimlardir...

Kipriklar-qorachiqning soqchilari



Haqiqat nurlarin to‘ssangiz agar

Yilib tashlagumdir bitta qoldirmay, deya haq so‘zni Haq oldida qo‘rmasdan ayta olgan yozuvchi Tohir Malikning har bir asari inson qalbining ma’naviy ozuqasidir.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tohir Malik “Oxirat” qissa va hikoyalari. -T.: “Sano standart”, 2018
2. Tohir Malik “Odamiylik mulki” -T.: “Istiqlol”, 2005
3. Tohir Malik “Po‘rtanali ummonda suzar hayot qayig‘i” -T.: “Shaqr”, 2005

